

HUVAYDO LIRIKASIDA IJODKOR NIYATINING IFODALANISHI

Majidova Diyora Abdumalik qizi

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti O'zbek Filologiyasi
fakulteti. Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi
diyoramajidova30@gmail.com*

Annotatsiya: *Maqolada Huvaydo lirikasida ijodkor niyatining ifodalanishi haqida so'z boradi. Jumladan shoir, axloqiy xulq-atvor, insoniy fazilatlar va jamiyatda kurtak otgan illatlarni qoralaydi va insonni bundan uzoq turishga undaydi. Uning eng oliy maqsadi esa ilohiy vasl, ya'ni Allohning vasliga erishish, uning jamoliga muvaffaq bo'lish ekanligini ifodalaydi.*

Kalit so'zlar: *Huvaydo, ilohiy vasl, tasavvuf, tariqat, mir'oti qalb, nafs.*

O'n ming misraga yaqin she'riy merosni qamragan Huvaydo ijodida XVIII asr ijtimoiy-madaniy hayotidagi insonparvarlik ruhi o'z ifodasini topgan. Shoir ijodining asosiy mazmunini xalqchilik, hayotiylik, ma'naviy-axloqiy tubanlikka qarshi nafrat, diniy mutaassiblikdan yiroqlashishga da'vat g'oyalari tashkil etadi.

Huvaydo shaxsi va dunyoqarashining shakllanishi shubhasiz, jamiyat duch kelgan g'oyat mushkul muammolar, xususan, e'tiqodning susayishi, kishilarning molu dunyoga xirs qo'yishi, ma'naviy axloqiy tanazzul kuchli ta'sir ko'rsatdi. U ana shu muammolar haqida iztirob bilan:

Haloki nafs bo'libdur tamomi odamilar
Alarning ko'nglida yo'q haybati qiyomat hech.
Yoki
Dar in vaqtu zamon vallohi olam,
Xaloyiqlar ichinda rostgo'y kam.
Musulmonlik qolibdur mag'zi ismi,
Bo'lubdur xalq aro taqlid rasmi – deb yozadi.

Huvaydo Turkiston xalqlari tarixidagi ana shunday murakkab sharoitda yashadi va ijod qildi. Boylikka xirs qo'yish, zulm va shafqatsizlik, bag'ritoshlik singari ijtimoiy illatlarni bartaraf etish sog'lom ijtimoiy muhit yaratishning ma'rifiy asoslari haqida mushohada yuritgan.

Shoir zamondoshlarini Allohning yo'liga, ya'ni tariqatga kirishga da'vat etishdan oldin o'zining bu yo'lga kirishdagi iztirob, ikkilanish, mashaqqat va uqubatlarini ro'y-rost bayon etdi. O'zidan ilgari o'tgan barcha buyuk so'fiylar singari ishq dardini barcha dardlar (ijtimoiy muammolar)ning davosi deb bildi.

So'fiy shoirning ta'kidlashicha, nafs, orzu-havas, ahli avlod va dunyoga mehr qo'yish bor ekan, inson gunohsiz yashay olmaydi. Gunohlarning ajri esa nadomat va tavba qilishdir.

Huvaydo g'azallari orqali riyokorlik, ikkiyuzlamachilik, ta'magirlik, johillik, shuhratparastlik, ilmsizlik, nodonlik, kibr singari illatlarni ayovsiz tanqid qildi. Shu ma'noda uning asarlari o'ziga xos "mir'oti qalb", ya'ni qalb ko'zgusi vazifasini o'tadi. Bu ma'rifatparvar va donishmand mutafakkirlarga xos xislat bo'lib, Xoja Ahmad Yassaviy boshlab bergan adabiy an'ananing ijodiy rivojlantirilishi edi.

Dunyoqarashi barqaror, qalbi imon nuriga to'la insonlar oilasida dunyoga kelgan Huvaydo, ulg'aya borgan sari dunyoni, insonning olamga kelishi va ketishi hikmatlarini o'ylagan, bu sohadagi falsafiy qiziqishlari orta borgan. Ammo, ana shu ongli hayotining boshidayoq uni turli mazmundagi noto'g'ri fikrlardan, ikkilanishlardan asrab, haqiqat yo'lga yo'naltirib turuvchi kuch bor edi. Bu – uning qon-qoniga singib ketgan ma'rifatdir. U qiynoq, azoblardan shikoyat qilgan bo'lsa, ma'rifatni, go'zal xulqni kamolga yetkazish yo'lidagi mashaqqatlarini ifodalagan edi. Bu yo'l shoir uchun tariqat yo'li edi. Shu bois u mutafakkir shaxs bo'lib yetishdi, ma'naviy komillikni o'zi yashayotgan jamiyatdagi kishilarda ham ko'rishni istadi:

Talab qil ma'naviy ganj, ey birodar,

Vagarna sandin avlo gov ila xar.

Talab qil bo'lsa ganji beziyoni,

Sanga bo'lg'ay chu umri jovidoni.

Kishi bo'lmasa ma'nidin xabardor,

Ani odam dema, de naqshi devor.

Ha, xuddi shunday! Asosiy gap shundan ham iboratki, shoir o'z zamonidagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy tengsizlik va adolatsizliklarni, yaxshilik va aql xokisor qililib, o'g'rilik, munofiqlik, razillik, riyokorlik va fitna keng qanot yoyganligini ko'radi, fosh qiladi, odamlarni ulardan nafrat qilishga da'vat etadi.

Bu, masalaning bir tomonigina. Ikkinchi tomoni shundan iboratki, Huvaydo bunday yomonliklarni va yomonlik yaratuvchilarni ko'rib hamda qayd qilibgina qolmay, ularni keskin tanqid qiladi. Buni u ba'zan juda keng, chuqur ko'lamda va ma'lum darajada aniq qiladi. Oqibatda uning bu fosh etishi va tanqidi keng sotsial ahamiyat kasb etadi.

Jamiyatni halokatga olib borayotgan va insonni bo'g'ayotgan ijtimoiy illatlarni, bu illatlarga ega bo'lganlarni tanqid qilish va rad etishda Huvaydo har xil vositalardan foydalanadi. Ba'zan, yana davri taqozosi bilan xudoni eng yuksak adolat o'lchoviga aylantirib, uning qahr-u g'azabi bilan, do'zaxi azoblari bilan yomonlarni qo'rqitmoqchi bo'ladi hamda shu orqali ularni badkorlik va talonchilikdan qaytarmoqchi bo'ladi va jamiyatni insonga isnod keltiradigan illatlardan tozalashga urinadi. Ba'zan esa, bevosita va to'g'ridan-to'g'ri badkorlarga insoniy vijdon hamda or-nomusni qarama-qarshi qo'yadi va shu yo'l bilan, pand-nasihati vositasi bilan ularni yomon harakatlardan voz kechtirmoqchi bo'ladi.

Ba'zan esa, shoir toj-taxtni, hukmronlik mansabini, shular uchun bo'ladigan falokatli hamda halokatli jangu jadallarni, katta boylikni ortiqcha hamda harom boylikni to'plashga, qo'lga kiritishga urinishni aksar yovuzlik va yomonliklarning asosi

deb talqin qiladi va mutlaq keladigan o'limni, o'lgandan keyin barcha narsaning, albatta tashlab ketishini ro'kach hamda qurol qilib, odamlarni haligi falokatli hamda dahshatli urinishlardan voz kechtirmoqchi bo'ladi.

Huvaydo shunday kayfiyatini ifodalaydigan va alamli dil qoni hidi keladigan misralaridan ayrimlari quyida keltiramiz:

Bu dunyo chunki hasratxona erur,
Ki, behasrat kishi devona erur.
Agar ming yashasang, birdur tiriklik,
O'larsan oqibat, ey xo'b biliklik.
Qani Qorunsifat dunyoni yiqqon,
Qani dunyo taloshib to'kkuvchi qon!
Qani bul dunyoda man-man deganlar,
Jahon moli mening deb, sig'maganlar!
Bu dunyog'a ko'ngul qo'yma, birodar,
Hama kori erur vayronu abtar.

Huvaydo axloq masalalari bilan ko'p mashg'ul bo'ladi, go'zal insoniy fazilatlarni, chin insoniy etika prinsiplarini, normalarini ardoqlaydi, odamdagi yaramas, "husnbuzar" xulq ko'rinishlarini nafratlaydi. U avvalo, inson qadr-qimmatini hurmatlash, saqlash, uni yuksaklikda tutish zarurligini ta'kidlaydi va bu narsa oyoqosti etilayotganidan shikoyat qiladi "Darig'o, hayf, odam bir-birining qadrini bilmas..." g'azali fikrimizning isbotidir.

Huvaydo kamtarlikni, tavozeni, kattaga hurmat, kichikka izzat ko'rgazishni, muhtojga yordam berishni madh etadi, bunga rioya qilmaganlar kibrlilik, manmanlik, shaxsiyatparastlikka berilgan va o'zini xalqdan alohida tutgan, jamoatdan yuqori qo'ygan, o'zgalarga barmoq uchi bilan muomala qiladiganlarni g'azabli tanqidga uchratadi:

O'zingg'a nozish etma el aro ibni falonman deb,
Necha ibni falong'a bo'ldi yer ostida jo paydo...

Huvaydo o'zini o'zgaga munofiqlona yo'l bilan do'st, mehribon, odobli qilib ko'rsatib, undan obro' oladigan, so'ngra ish bitgandan keyin undan hayosizlarcha yuz o'giradigan, buning ustiga uning boshiga ta'na hamda balo toshlarini yog'dirishga urinadigan razillardan cheksiz nafratlanadi. Xiyonat, sotqinlik, chaqimchilik va ig'vogarlikni qon qaqshab qoralaydi, la'natlaydi, nihoyat darajada zararli va xavfli deb biladi, shuning uchun ham do'st tanlay bilishlik, odamni saralay olishlik va sir saqlashlik juda ham zarur ekanligini uqtiradi:

Aytmagil siringni san har kimga, sirdosh o'zgadur,
Dardi yo'q bedardg'a mung etma, mungdosh o'zgadur,
Hamrohi qobil bila yur, bir qarich yo'l bo'lsa yo'l,
Yurmagin nojins birla, yo'lda yo'ldosh o'zgadur.
Qo'lda moling borida yoru birodar, xesh ko'b,
Ore, bosh yostuqqa yetkanda qarindosh o'zgadur...

Ey Huvaydo, berma dil har bevafoni yor deb,
Ikki olam bevafo yori qaro qosh o'zgapur.

Huvaydo odamlarning hayoti, xulqi, dili sof bo'lishligini kuylaydi, ularning bir-birlariga mehribon va hamdard bo'lishlarini, bir-birlarining g'am-alamlariga sherik bo'lib yengillatishlarini, dardlariga davo berishga, malham qo'yishga intilishlarini, xullas , tarqoq sharoit va zulmatda bir-birlariga chirog' tutishlarini, ziyo baxsh etishlarini orzu qiladi. Shu bilan birga yolg'izlikdan, hamdard yo'qligidan qattiq shikoyatlanadi, nola chekadi.

Yuksak insoniy axloq fazilatlarini qay tarzda bo'lmasin ardoqlash, ko'klarga ko'tarish va insonga zid, yarashmaydigan yaramas xulq-atvorni qoralash qanday yo'l bilan bo'lmasin shu go'zal axloq, fazilatlarini oyoq osti qilgan, hatto jinoyat deb e'lon etgan va hayvoniy hamda yovvoyi xulq-atvorni, yovuz dushmanlikni yaratgan, saqlab turgan, hokim qonun darajasiga ko'targan, o'sha "Odam odam uchun bo'ridir" degan feodal jamiyatiga, tuzumiga obyektiv ravishda berilgan zarba ham edi. O'shal davr ustidan chiqarilgan hukm ham edi.

Huvaydo ham olam va odamning mohiyatini teran anglaydi. O'zi bilgan haqiqatlar bilan zamondoshlarini oshno etishga harakat qiladi. Ularni o'z nafslaridan g'olib, kamtar, kamsuqum, qanoatli, muhabbatli ko'rishni orzu qiladi. Huvaydo insoniyatning barcha ranju falokatiga sabab keng ma'nodagi nafs ekanligini e'tirof etadi. Shoir uning qilmishini ajdarhoga o'xshatadi:

Nafsing seni qattig' balo, albatta, urgil poy ango,
Har dam seni o'tqa solur, zinhor berma roy ango...
O'z royiga qo'ysang oni, bir damda ajdarho bo'lub
Boshing yutarg'a o'g'ragay, erkingni berma boy ango.

Manmanlik, takabburlik ham nafsga mag'lublikning bir ko'rinishidir. Inson tabiatidagi bu nuqsonning oxiri qanday xotima topishini shoir ibratli, hayotiy xulosalar orqali bayon etadi:

Chandon kishilar "dunyo mening" deb quchub o'tti,
Dunyo talashib bir-biridin qon sochib o'tti...
Manman dedilar, sig'madilar ushbu jahong'a,
Ko'rgilkim, ani uch qari yerni quchub o'tti.

Huvaydo she'riyati mazmun, g'oya jihatidan qanchalik o'tkir mushohadaga boy meros bo'lsa, badiiy mahorat nuqtai nazaridan shunchalik o'ziga xos va yangichadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Huvaydo Xojanazar. Devon. – T.: Yangi asr avlodi, 2007. – 303 b.
2. Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. – 271 b.
3. Zohidov V. Hayotbaxsh badiiyat taronalari. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1975. – B. 138.

4. G'aniyeva S. Huvaydo. Ko'ngil dardi. – T.: Meriyus. 2009.
5. Jumaxo'ja N. Huvaydo tasavvufiy she'rlarida falsafiy-badiiy talqin. "Sharq yulduzi" gaz., 1998-yil 11-avgust. № 2577.
6. Ro'zmatzoda Q. Xojamnazar Huvaydo diniy-mistik qarashlarining XVII-XVIII asrlar Markaziy Osiyo tasavvufi rivojidadagi o'rni. Fil.fan.dokt.diss avtoreferat.- T.: 2020